

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF NATURAL OBJECTS LOCATED IN THE JIZZAKH REGION AND THEIR TOURISM POTENTIAL

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

New Century University, Head of the Academic

Department, PhD in History, Acting Professor

E-mail: m.azizbek14051983@gmail.com

Abstract. This scientific article examines the processes of historical and geographical formation and the classification of natural objects located in the Jizzakh Region, based on the analysis of scientific sources and a regional-geographical approach. The tourism potential of natural objects is assessed in the context of the modern development of tourism, and the possibilities for their involvement in tourism activities are analyzed. The research findings have scientific and practical significance for the development of regional tourism, the rational use of natural resources, and the formation of a sustainable tourism concept.

Keywords: Jizzakh Region, natural objects, historical and geographical classification, tourism potential, ecotourism, regional tourism, sustainable development.

JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKTЛАRNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHIYATI

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

Yangi Asr Universiteti

Akademik bo'lim boshligi, tarix fanlari

bo'yicha falsafa doktori PhD, prof v.b

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Jizzax viloyati hududida joylashgan tabiiy obyektlarning tarixiy-geografik shakllanish jarayoni va ularning tasnifi ilmiy manbalar hamda hududiy-geografik tahlil asosida yoritilgan. Tabiiy obyektlarning zamonaviy turizm sohasidagi salohiyati baholanib, ularni turistik faoliyatga jalb etish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari hududiy turizmni rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror turizm konsepsiyasini shakllantirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, tabiiy obyektlar, tarixiy-geografik tasnif, turistik salohiyat, ekoturizm, hududiy turizm, barqaror rivojlanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N03>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatining muhim komponenti sifatida tabiiy obyektlar milliy boylik va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Jizzax viloyati o'zining noyob landshaftlari, qo'riqxonalari, tog'-dasht zonasidagi landshaftlar bilan ajralib turadi. Joriy yilning 2-dekabr kuni, Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etib, viloyatning Baxmal va Zomin tumanlaridagi tog'li hududlarni yagona turizm halqasiga birlashtirish orqali yuzlab servis obyektlarini ishga tushirish, minglab odamlarni ishli qilish, turizm eksportini karrasiga oshirish imkoniyati ta'kidlandi. Mutasaddilarga kelgusi yilda Zomin — Baxmal — G'allaorol yo'lining 158 kilometr qismini ta'mirlashni boshlash topshirildi. Baxmal tumanida 39 gektar maydonda 40 million

dollar investitsiya hisobiga turizm klasterini tashkil qilish tashabbusi ma'qullandi. Baxmal ham "turizm tumani" maqomi berish belgilandi. qisqa vaqt ichida Zomin, Forish, Arnasoy tumanlari va Jizzax shahrida 2 milliard dollarlik 500 dan ortiq turizm va servis obyektlari ish boshladi. Arnasoy va Zominda yil davomida faoliyat yuritadigan kurort zonalar va aeroportlar barpo etilgani Jizzaxni yirik turistik yo'nalishga aylanganligini ta'kidlab o'tdi [1].

Jizzax viloyatida tabiiy resurslardan foydalanishda barqarorlik tamoyillari joriy etildi. Sug'orish tizimlari modernizatsiya qilindi, suv resurslarini tejashga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi. Viloyatining tabiiy go'zalliklari (masalan, Zomin milliy bog'i, Nurata tog'lari) ekoturizmni rivojlantirish uchun foydalanilmoqda. Bu esa tabiiy resurslarni saqlash va ularni mantiqiy foydalanishga yordam beradi. Mustaqillik davrida paxtachilikdan tashqari, bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik kabi sohalarga e'tibor kuchaydi. Bu esa tabiiy resurslardan foydalanishni muvozanatlashga yordam berdi. Jizzax viloyatida ekoturizm tarmog'ining rivojlanish jarayonlari, uning ilmiy-nazariy asoslari va iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-geografik jihatlarini ochib berish, to'plangan tarixiy tajriba asosida vodiy tabiatining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ko'rsatish dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jizzax viloyatida turizmning rivojlanishida tabiiy resurslar alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari va bu rayonlarning ekoturistik tavsifini A.Nig'matov va N.Shomuratovlar tomonidan mamlakat hududi o'n to'rt ekoturistik rayonga ajratilgan [2]. Jizzax viloyatida tabiat bilan bog'liq turizm tarmoqlarini rivojlanishi Sirdaryo rayoni, Aydarko'l rayoni va Turkiston rayonlariga bo'lingan. A.To'loqov va D. Berdievalar ekoturizmni rivojida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi muhim ahamiyatga egaligi o'z tadqiqotlarida ko'rsatib o'tishgan[3]. T. Ergashev O'n ikki ming gektarga yaqin maydonni egallagan eng yirik va tabiiy o'rmonlar Zomin ekoturistik manzilgoh sifatida ichki va tashqi turizmga muhim ahamiyatga ega. Tog' yonbag'irlari go'zal daralar bilan o'ralgan. Daryo va soy bo'ylarida oqteraklar, majnuntollar va jiydalardan iborat to'qayzorlarga ekoturistik mashrutlar tashkil etilgan haqida ma'lumotlar tadqiqotlarida keltirib o'tgan [4]. Muxamedov O.I., Jurayeva D.D. Jizzax viloyati ekoturistik imkoniyatlaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan [5]. Usmanov m. Jizzaxning rekreatsiya-sayyohlik imkoniyatlari haqida tadqiqotlar olib borish natijasida Turkiston tog' tizmasining shimoliy yonbag'rida joylashgan Chumqortog' turistik-rekreasiya mintaqasida sport-sog'lomlashtirish, tabiat yodgorliklari, archazorlar, suv bo'ylarida ekskursiyalar tashkil etish, Novqin suv ombori hududida suv sportini rivojlantirish, quyosh va havo vannalarini qabul qilish imkoniyati mavjudligi bu hududda turizm hamda rekreatsiyani rivojlantirish imkoniyati yuqori ekanligini ta'kidlab o'tadi [6].

Natija va muhokama. Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, Shimoli-sharqda Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubiy-g'arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh [7]. Jizzax viloyatida ham turizm va ekoturizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. 372 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan. Ulardan 42 ta tarixiy obida va ziyoratgohlar bo'lsa, 267 ta arxeologiya, 63 ta monument yodgorliklari hisoblanadi. 2019-yilning dekabr oyi yakuniga ko'ra, 91 ta joylashtirish vositalari mavjud bo'lib, ular 2500 dan ortiq mehmonga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega [8].

Jizzax viloyatining Zomin tumani purviqor tog'lari, go'zal tabiati bilan mashhur. Dengiz sathidan 3000 metr balandlikda joylashgan tog'lar bag'rida yam-yashil archazorlar, zilol suvli buloqlar, shifobaxsh giyohlar va o'simliklar sayyohlar e'tiborini tortmay qolmaydi. Bu yerda umumiy maydoni 26 ming 840 gektarga teng Davlat qo'riqxonasi, 24 ming 110 gektar maydondagi Xalq bog'i noyob tog' ekotizimlarni saqlash, tiklash va tadqiq etish imkonini berishidan tashqari tabiiy shifoxona sanaladi. Unda ekosayyohlar uchun qulay shart-sharoit yaratilgan. O'n ikki ming gektarga yaqin maydonni egallagan eng yirik va tabiiy o'rmonlar Zomin ekoturistik manzilgoh sifatida ichki va tashqi turizmga muhim ahamiyatga ega. Tog' yonbag'irlari go'zal daralar bilan o'ralgan. Daryo va soy bo'ylarida oqteraklar, majnuntollar va jiydalardan iborat to'qayzorlarga ekoturistik mashrutlar doimiy olib borilmoqda [9]. Ekoturizmni rivojida Aydar-Aranasoy ko'llar tizimi muhim ahamiyatga ega. Bu ekoturistik obyekt Jizzax - Navoiy avtomobil yo'li bo'yida joylashganligini hisobga olsak, kelajakda Nurota tog' yong'oqzor qo'riqxonasi negizida Milliy bog' barpo etilishi ushbu hududning yo'l va boshqa kommunikatsiya sohaslarini yaxshilash, turistik infratuzilmalarni barpo etish orqali hududda tog' klasterlarini tashkil etishga ham imkoniyat yaratiladi [10]. Hududga bevosita sayohat Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekoturizm maqsadida suv va baliq resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ko'paytirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlar, ilmiy-amaliy xulosalar ekoturizm sohasidagi bilimlarni boyitadi va bu hududdagi suv va biologik resurslardan samarali va oqilona foydalanishga asos bo'ladi. Aydarko'l rayonidagi ko'llar tizimining paydo bo'lishi bevosita Mirzacho'lning o'zlashtirilishi bilan bog'liqdir. Sizot suvlari hamda zovurdrenaj suvlarining Aydarko'l botig'i tomon harakatlanishi natijasida botiqdagi Tuzkon ko'lining kengayishi Arnasoy hamda Aydarko'l ko'llarining paydo bo'lishiga olib keladi. Botiqdagi keyingi dinamik o'zgarishlar Chordara suv omboridagi (1969) ortiqcha suvlarning tashlanishi bilan bog'liq. Bu suvlarning to'planishi natijasida Arnasoy ko'llari birlashib yagona Aydarko'llar tizimining paydo bo'lishiga va undagi faunani boyitib beruvchi "Arnasoy buyurtmaxonasi"ning tashkil etilishiga olib keldi [11].

Jizzax viloyati Mirzacho'l turistik rayoniga kiritilgan bo'lib, o'zining ekoturistik imkoniyatlariga boy hududlardan biri ekanligi ajralib turadi. Bu yerda bir vaqtning o'zida bir tomoni qizigan qum cho'llar va ikkinchi tomoni qor bilan qoplangan viqorli tog'lar yastanib yotadi. Viloyatning ana shunday o'ziga xos landshaftlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, xushmanzara archazor tog'lari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Turkiston rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida 1959 yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m. umumiy maydoni 21735 ga bo'lgan "Zomin davlat qo'riqxonasi", maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog'-archa ekosistemalarini tiklash, va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978 yilda tashkil etilgan "Zomin milliy bog'i" mavjud. Zomin Davlat qo'riqxonasi 1994 yil 7 oktyabrdagi "Zomin davlat qo'riqxonasi hududiy kengaytirish va uni qo'riqlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan qo'riqxona hududining aniq chegaralari belgilab chiqilgan [12]. Qo'riqxonaning Baxmal bo'limi o'ziga xos biologik xilma-xillikka ega bo'lib, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish maqsadida bu yerda muntazam ravishda nazorat ishlari olib boriladi.

2020-yil 7-avgust kuni Davlat ekologiya qo'mitasi raisi Shavkat Abdurazakov Jizzax viloyatidagi xizmat safari doirasida Zomin davlat qo'riqxonasida bo'ldi. G'arbiy Tyan-Shanning tabiiy komplekslarini saqlab qolish, u yerdagi hayvonlar va o'simliklarning noyob turlarini

qo'riqlashni kuchaytirish hamda ko'paytirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi [13]. Zomin milliy bog'i va Zomin davlat qo'riqxonasi Piyoda yurish (trekking) yo'nalishlarini, Tog' ekotizimlarini kuzatish va tabiatni o'rganish uchun maxsus ekskursiyalar hamda ekologik toza dam olish maskanlarini barpo etish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Zomin milliy bog'i va Zomin davlat qo'riqxonasi noyob flora va fauna turlari bilan mashhur bo'lib, ekologik sayohatlar va dam olish uchun qulay maskanlardir. Zomin va Baxmal bo'limlaridagi ekoturistik marshrut "Boyqo'ng'ir tabiati" ekoturistik marshrut (Baxmal bo'limi qo'riqxona hududida joylashgan), "Qirq qiz" ekoturistik marshrut (Zomin bo'limi qo'riqlanma hududida joylashgan), "Chortangi darasi" ekoturistik marshrut (qo'riqxona hududida joylashgan), "Ko'losoy tabiati" ekoturistik marshrut (qo'riqxona hududida joylashgan) va "Qoshqa suv ko'zatuv markazi" ekoturistik marshrut (Zomin bo'limi qo'riqlanma hududida joylashgan). O'simliklar va hayvonlar hayotini ko'zatish hamda qo'riqxonaning tik jarliklari, tog'larning pastki qismi, o'rta va baland qismlarini, qorli tog' cho'qqilari va quyuq archazorlarni ko'rish mumkin. Qo'riqxona atrofiga yaqin mehmonxona: "Wyndham garden hotel zaamin" mehmonxonasi hududdan 5 km masofada Zomin tumanida joylashgan.

Viloyatda mavjud turistik salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro umummavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish maqsadida 2021-yil 6-aprelda "Zomin" turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini ham farmoni qabul qilindi [14]. Farmonda Turistik zona hududida "Suffa platosi. 2400" xalqaro umummavsumiy kurorti va "O'rikli soy" turizm majmuasini tashkil etish nazarda tutilgan.

Hukumat qaroriga muvofiq, Jizzax va Navoiy viloyatlarining turistik salohiyatini rivojlantirish maqsadida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hamda To'dako'l ko'lida rekreatsion ko'llar hududi tashkil etiladi [15]. Mazkur rekreatsion ko'llar hududida 2021–2025-yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Rekreatsion ko'llar hududiga kiruvchi yer uchastkalarini tadbirkorlarga berish, ularda qurilish va barpo etish loyihalarini amalga oshirish Turizm va sport vazirligi bilan majburiy tartibda kelishiladi. Rekreatsion ko'llar hududiga kirish nuqtasida axborot markazi va zamonaviy avtoturargoh tashkil etiladi. Tashrif buyuruvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida rekreatsion ko'llar hududida qutqaruv brigadasi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Baxmal o'rmon xo'jaligi hududida joylashgan Baxmal dam olish va sog'lomlashtirish oromgohida igna bargli daraxtlari, musaffo havosi, bu hududda tog' iqlimi profilaktik-sog'lomlashtirish muolajalarini o'tkazish uchun zamonaviy tipdagi uy mehmonxonalari, kempinglar xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bu yer nafas olish yo'llari va bronxial astma, allergiya, asab tizimi hamda tayanch-harakat a'zolari xastaligiga chalingan kishilarni sog'lomlashtirish uchun ixtisoslashgan. Bu hududdagi yana bir necha dam olish maskanlariga tashrif buyurgan sayyohlar uchun supalar, soy va tog' yon bag'ridagi kempinglar, o'tovlar, xushmanzara tabiat, toza havosi, basseyn, qozon patir, milliy taomlardan bahramand bo'lish, soy bo'yidagi ayvonchalarda dam olish va milliy o'tovlarda tunash, toza sut mahsulotlaridan bahramand bo'lish hamda quyuq archazorlar oralab ekologik so'qmoqlarda sayr qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xulosa. Jizzax viloyatining tabiiy obyektlarini samarali turizm manbaiga aylantirish uchun ekologik toza turizmni rivojlantirish, tog' va cho'l sport turlarini ommalashtirish, agro va gastronomik turizmni targ'ib qilish hamda zamonaviy marketing yondashuvlaridan foydalanish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, balki viloyatning tabiiy merosini saqlashga ham xizmat qiladi. Jizzax viloyati o'zining betakror tabiiy obyektlari bilan ekoturizm, tog' turizmi, sport va madaniy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Ushbu obyektlardan samarali foydalanish turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturistik yo'nalishlarni yaratish va sayyohlik xizmatlarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jizzax viloyatini har tomonlama rivojlangan hududga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar. Xalq so'zi gazetasi. 2025 yil 3-dekabr, № 252 (9147).
2. Nig'matov A., Shomuratova N. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi // Ekologiya xabarnomasi, 2-son, – Toshkent, 2007. – B. 45.
3. Toyloqov A., Berdieva D. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi tabiiy resurslarni ekoturizm va baliqchilikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy usullar yordamida baholash // Ekologiya axborotnomasi, 6-son, 2019.–B 36.
4. Ergashev T. Zomin ohanrabosi. // Xalq so'zi, 2018 yil 28 iyul, №155 (7113).
5. Muxamedov O.I., Jurayeva D.D. Jizzax viloyati ekoturistik imkoniyatlaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari. "O'ZBEKISTONNI TOP O'N TURISTIK HUDUDLAR QATORIGA KIRITISH ISTIQBOLLARI: BARQAROR RIVOJLANISH IMKONIYATLARI" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy amaliy anjuman materiallari to'plami 2020 yil 11 12 dekabr.
6. Usmanov M. JIZZAXNING REKREATIONS-SAYYOHLIK IMKONIYATLARI. // Jizzax haqiqati gazetasi, 2024 yil 18-yanvar.
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, J-harfi. 2000-yil 136-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.
8. Rahmonqulova X. Dunyoga yuz ochayotgan yurt. // Jizzax haqiqati, 2020 yil 20 yanvar.
9. Ergashev T. Zomin ohanrabosi. // Xalq so'zi, 2018 yil 28 iyul, №155 (7113).
10. Mo'minov Azizbek Ziyoviddinovich. "O'zbekistonda ekologik turizmning rivojlanish jarayonlari (1991-2020 yy)". 07.00.01- O'zbekiston tarixi.Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. DISSERTASIYA. Toshkent – 2021. 137-bet.
11. Matmurodov M. Ekoturizm. Ma'ruzalar matni. – Nukus, 2008. 81–bet.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 7 oktyabrdagi "Zomin davlat qo'riqxonasi hududiy kengaytirish va uni qo'riqlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 498-son qarori.
13. Zomin davlat qo'riqxonasiga tashrif. Davlat ekologiya qo'mitasi Matbuot xizmati. <https://uznature.uz/uz/site/news?id=925>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Zomin" turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida " dagi . PF-6201-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.04.2021-y., 06/21/6201/0302-son
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 16 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida suvda dam olish va plyaj turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 368-son qarori.
16. Muminov, A. Z. (2018). DEVELOPMENT OF ECOLOGIC TOURISM IN UZBEKISTAN. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 3(3), 123-126.

-
17. Babajanova, D., Isakov, B. N., Tilabaev, S. B., & Muminov, A. Z. (2022). Interaction of Tourism Development in Uzbekistan with Types of Historical and Cultural Monuments. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1730-1739.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).